



TA'LIM VA TARBIYANING ZAMONAVIY SHAKLLARI,
TA'LIMIY METOD VA USULLARI

Qayrat Mambetaliyev

CHDPU "Boshlang'ich ta'lim" fakulteti "Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti" kafedrası dotsenti f.f.f.d., (PhD)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim-tarbiyaning zamonaviy shakllari, usullari va zamonaviy metodlardan foydalanib dars o'tish jarayoni. Zamonaviy usullardan foydalangandan so'ng pedagogik psixologik jihatdan bilimga, ta'lim-tarbiyaga ega bo'lishligi to'g'risida.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy shakllar, usullur, usul, esse metodi, keys-stadi metodi, an'anaviy dars, noan'anaviy dars.*

Annotation: *This article describes the methods of modern forms of education and the process of teaching using modern methods. On the acquisition of pedagogical and psychological knowledge after using modern methods.*

Keywords: *modern forms, usullur, method, essay method, keys-stud method, traditional lesson, unconventional lesson.*

Kirish. Ta'lim, bilim berish malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi, lekin u faqat turli tipdagi o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas oila ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi.

Tarbiya shaxsda muayyan jismoniy ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi .



Jahonda ikkinchi muallim deb nom olgan Abu Nasr Farobiy ta`lim – tarbiyaga birinchi bo`lib ta`rif bergan olim hisoblanadi. U aytadi “Talim o`qitish asosida tushuntirish nazariy fazilatlarni ma`lum hunarni egallash uchun zarur bo`lgan hulq va amaliy malakalarni o`rgatishdir. Ta`lim faqat so`z va o`rgatish bilangina bo`ladi. [1;26] Tarbiya esa amaliy ish tajriba bilan. Demak bu keltirilgan ta`riflangan tarbiya so`zini isloh qilish talabalarni ishini boshqarish bu mas`uliyatni zimmaga olishlik ,ularning malakasini oshirishga e`tibor berish kabi tushunchalar orasida aylanishini bilib olish mumkin”.

Ta`lim-tarbiyani to`g`ri tashkil qilish uning maqsadlarini to`g`ri belgilab olishdan boshlanadi.

Tarbiya bizlar uchun -yo hayot, -yo momot, -yo najot, -yo halokat, -yo saodat, -yo falokat masalasidir, -deb aytib o`tgan ma`rifatparvar Abdulla Avloniy Bu chuqur ma`noli so`zlari naqadar haqiqat ekanin yaxshi anglaymiz .Bejizga hayotda Ta`lim – tarbiya so`zlarini birga bog`lab aytmaymiz . Talim berib turib tarbiyani yo`lga solish demakdir. [2;52]

Asosiy qism: Yosh avlodga bog`cha maktab va kollej texnikumlar hamda oliygohda sifatli ta`lim- tarbiya berishni yo`lga qo`yamiz , ular jismoniy va ma`naviy sog`lom vatanparvar insonlar bo`lib ulg`ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz .Yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan ezgu fazilatlar egasi bo`lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojatnomasida ta`kidlaganidek “Yangi O`zbekiston maktab ostonasidan, ta`lim – tarbiya tizimidan boshlanadi ”-degan g`oya asosida keng ko`lamli islohatlarni amalga oshiramiz deya ta`kidlagan. [2;47,62] Bekorga bu murojatnoma xalqimizga e`lon qilinmadi. Sababi biz tarbiyani yoshligimizdan ota-onamiz, bobo -buvimizdan olamiz. Ta`limni esa maktabdan ilk nashidasini harflar, tovushlar, so`zlar, gap tuza olish hamma- hammasini maktab ostonasidan o`rganamiz. Maktabda ta`lim bilan tarbiya birga o`rganiladi: Ta`lim nazariy bilimlar faktlar o`rganib olish, tarbiya o`z xulq -atvorini jamiyatga ko`rsata bilishdir.



O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Oliy Majlis palatalarining qo`shma majlisidagi nutqida ta`kidlaganidek “Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgalikni zimmasiga olishga qodir bo`lgan bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g`urur va iftixor bag`ishlaydi. Bu sohada olib borilayotgan keng miqyosli ishlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur. Faqat ta`lim – tarbiya orqali insondagi rivojlanish imkoniyatlarini ro`yobga chiqarish mumkin. Tarbiya jarayonida aniq maqsad va reja asosida shaxsga ta`sir etiladi buning natijasi o`laroq muhitdagi voqealarni to`g`ri ijobiy ta`sirini amalga oshirish imkoni yaratiladi. Talabalarga, yoshlarga umuman olganda hammaga ta`lim tarbiya berishning odatiy usullarini bilamiz. Birinchisi so`z orqali tarbiyalash. So`z orqali uzatish, maslahat berish, ma`lumotlarni eshitish orqali qabul qilish, hikoya, ma`ruza, suhbat va boshqalar. Ikkinchisi ko`rgazmalilik usullari kinofilmlar, tasviriy san`at, badiiy san`at va boshqa ko`rish orqali tarbiyalash uslublari. Uchinchisi amaliy ibrat – namuna usuli. Tarbiya ma`lumotlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish o`rnak ko`rsatish boshqalarni amaliy mehnatda namuna qilib ko`rsatish. To`rtinchisi rag`bat va jazo usullari. Talabaning yaxshi va yomon qilgan ishlariga beriladigan baholar bu rag`bat va jazodir. Ta`lim – tarbiyada rag`bat va jazo keng qo`llaniladigan usuldir. Hozirgi yozib o`tgan to`rtta usullarni biz faqat tarbiya berishda jamiyatda qo`llaymiz, lekin uni ta`lim berishda dars mobaynida bunga amal qilmaymiz. Shu sababdan nafaqat maktab o`quvchilariga dars berishda talaba yoshlarga ya`ni ta`lim olayotgan paytda qo`llasak bo`ladi. Ayni vaqtda an`anaviy yana noan`anaviy dars turlari o`tilmoqda. Misol uchun bitta darsning borishini hisobga olsak faqat salomlashish, davomat, ma`ruza, seminar va uyga vazifa berish bilan cheklanib qolyapti. Xo`p mayli noan`anaviy darsda metodlardan foydalanib o`tilmoqda. Dars jarayonida ta`lim - tarbiya berishda yangi usullarni kiritsak: misol tariqasida mavzuga oid kinofilmdan parcha yoki bo`lmasa fanlar bilan, jamiyat bilan bog`lab mavzuga oid bideoroliklar ulardan so`ng Keys stadi metodidan foydalanib darsini bahs munozara shaklida o`tisa, unga qo`shimcha tarzda Esse metodidan foydalanib talaba yoshlar mavzuga oid o`zlarining fikr- mulohazalarini ochiq -oydin ayta olishi , nimadir yangilik



qo`shimcha qo`shish orqali o`z mustaqil fikrini etkaza olish qobiliyatini rivojlantiradi. Pedagogik yana psixologik tarafdin qo`llab quvatlashga, fantaziyasi orqali mendan yosh avlodga nimadur yangilik qoldirishga sabab bo`ladi.

Esse - fransuz tilida essai tajriba, ingliz tilida «essay», «assay-intilish, ijodiy sinov, ocherk, lotincha «exagium»,- o'ylash» degan ma'noni bildiradi. Esse - o'quvchining aniq mavzu yuzasidan shaxsiy fikr-mulohazalari asosida yoziladigan ixcham ijodiy ish hisoblanadi. Uning o'zgachaligi mavzuda ko'tarilayotgan muammoga fakt va dalillarni o'rinli keltirish orqali o'z munosabatini bildirish. Shu o`rinda esse bilan inshoni taqqoslash o`rinli , bu esa esse haqidagi ko`nikmalarning kengayishiga , essenini yanada yaxshi tushuna olishga yordam beradi.

Insho-arab tilidan olingan so'z bo'lib, “ bino qilish, qurish”, degan ma'noni bildiradi. Insho o'quvchining o'zbek adabiyoti fanidan olgan nazariy bilimlarini o'z fikri va dunyoqarashi bilan bog'lab yozadigan ijodiy mehnati. Bunda o'quvchidan o'qilgan badiiy asami chuqur o'ylashi, tahlil qilishi, so'ng badiiy til bilan ta'sirli ifodalashi talab etiladi. Inshoda o`quvchi berilgan mavzu asosida batafsil ijodiy fikrlashi , keng badiiyat asosida inshoga qo`yilgan rejaga muvofiq ifoda etishi mumkin. Esse esa erkin kompozitsiya asosiga quriladigan, tuzilish jihatdan ixcham nasriy asar bo'lib, badiiy-publitsistik janrning kichik bir turi. Esse muayyan bir reja asosida yozilmaydi, epigraf qo`yilmaydi. Insho- tuzilishi jihatdan hajmi keng, fan bo'yicha egallangan nazariy bilimlar asosida yoziladigan ijodiy ish. Insho uchun reja tuziladi va epigraf yoziladi. Essening turlari bir necha xil bo'lib, yozilish maqsadiga ko'ra uning qay turga mansubligi aniqlanadi. Insho shartli ravishda uch guruhga bo'linadi: adabiy, ijodiy va erkin mavzudagi insholar. Inshodan ko'zda tutilgan maqsad o'quvchining yozma nutqini rivojlantirish.

Bu metodning nomi inglizcha “case- study” so`zlaridan olingan. Bunda “case”-yashik, quti, gilof, jild, “stady”-o`rganish, tadbiiq qilish, ilm bilan shug`ullanish, o`quv fani saboq olish, o`qish ma`nolarini bildiradi. Bu metod haqida inglizcha aytiladigan “case -true life”, ya`ni “keys – haqiqiy hayot “iborasiga ko`ra keys – real hayotning “bir parchasidir”. Shunga ko`ra bu metodni “amaliy holatlarni o`qitish metodi” deb ham ataladi .



Shu sababli G`arb mamlakatlaridagi ta`lim muassasalarida keys-stady metodidan, ya`ni keyslardan foydalanish o`quv rejasining 25% ini tashkil qiladi. Shu munosabat bilan ta`lim muassasalarida hayotiy vaziyatdan foydalanishning ahamiyati haqida qisqacha to`xtalib o`tamiz.

Ta`lim jarayonida hayotiy vaziyatdan foydalanishning dolzarbligi:

Keys -stady ta`lim metodini turli holatlarni o`rganishda qo`llash – hayotdan olingan odatdagi vaziyatlarni o`rganishni tashkil etish yoki sun`iy yaratilgan vaziyatlarga asoslangan holda ta`lim oluvchilardan tegishli muammolarning maqsadga muvofiq yechimlarini izlashni talab qilishga qaratilgan ta`lim jarayonidan iborat.

Xulosa: Bundan xulosa shu kelajak vorislari bolalarimiz ta`lim tarbiya olishga har tomonlama sog`lom va etuk bo`lishi biz ota- onalar va jamoatchilik qo`lida. Kelajakni qanday ko`rmoqchi bo`lsangiz unda poydevorini hozirdan mustahkamlang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -T ; O`zbekiston 2019.
2. SH.M. Mirziyoyevning Erkin va farovon demokratik O`zbekiston davlatini barpo etamiz .- T “O`zbekiston ”2016.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T. Yangi asr avlodi, 2016. [1;26]
4. A.Avloniy. “Turkiy Guliston yoxud axloq” T. Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. [2;47,62]
5. **Q. Qodirov, A. Karimov.** *Zamonaviy Pedagogik Texnologiyalar.* Toshkent: O'zbekiston NMIU, **2018.**